BUXGALTERIYA HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH

Nabixo‘jayeva Dilafro‘z Sobir qizi
Sambhram universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada raqamli texnologiyalarni rivojlantirish hamda buxgalteriya hisobi yo‘nalishidagi o‘zgarishlarning hozirgi kundagi asosiy o‘rni haqidagi ma‘lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: buxgalteriya, raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot, bulutlitexnologiyalari, axborot texnologiyalari.

Аннотация:

В данной статье представлена информация о развитии цифровых технологий, а также об основной роли в настоящее время изменений в бухгалтерском учете.

Ключевые слова: Бухгалтерский учет, цифровизация, Цифровая экономика, облачные технологии, информационные технологии.

Annotation:

This article covers information about the development of digital technologies and the main role of changes in the direction of accounting in the present day.

Keywords: accounting, digitization, digital economy, Cloud Technologies, Information Technology.

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish tizimi zamonaviy buxgalteriya hisobini rivojlanishining yangi bosqichidir. Bu jarayon kompyuter dasturlari hamda buxgalteriya hisobi bilan bog‘liq muntazam ishlarni avtomatlashtiradigan maxsus tizimlardan foydalanishga asoslangandir.

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning eng asosiy sabablaridan biri buxgalteriya hisobining samaradorligini oshirishdan iboratdir. Ixtisoslashgan dastur va tizimlar yordamida buxgalteriya hisobini yuritish, hisobot berish, ish haqi hamda soliq to‘lovlarini hisoblash kabi vazifalar avtomatik tarzda bajariladi. Bu ushbu vazifalarga sarflangan vaqtni sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi vas hu bilan birga xatolar ehtimolini kamaytiradi.

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning eng keng tarqalgan vositalaridan biri bu buxgalteriya hisobini elektron shaklda amalga oshirish imkonini beruvchi buxgalteriya dasturlari hisoblanadi. Bunday dasturlar avtomatik ravishda buxgalteriya yozuvlarini yaratish, buxgalteriya hisobining to‘g‘riligini nazorat qilish hamda hisobotlarni shakllantirishni ta‘minlaydi. Bundan tashqari, ular omborlarni boshqarish tizimlari yoki CRM tizimlari kabi boshqa tizimlar bilan avtomatik ravishda integratsiyalashish imkoniyatini beradi.

Hozirgi kunda turli sohalarida, shuningdek, buxgalteriya hisobida ilg‘or axborot texnologiyalaridan foydalanish masalasi tobora jadal sur‘atda rivojlanib bormoqda, bu esa har qanday obyektni boshqarish tizimining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi zamonaviy axborot hamda telekommunikatsiya texnologiyalarini takomillashtirishni talab qiladi, bu esa o‘z navbatida buxgalteriya hisobi uchun yangi imkoniyatlar ham yaratib beradi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish xarajatlarni kamaytirish, inson omili ta‘sirini kamaytirish va bu ishni tezlashtirish orqali tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi[30].

So‘ngi yillarda mamlakatimizni yanada isloh qilishimiz hamda shu bilan birga rivojlantirishimiz uchun har bir sohada yangiliklar qilishimiz zarur. Darhaqiqat, mamlakatimizni iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy tomonlama rivojlantirish, uni modernizatsiya qilish, aholi farovonligini ta‘minlashda mustahkam poydevor vazifasini bajarishi hech kimga sir emasdir. Shu tarzda mamlakatimizni yanada rivojlantirishimiz uchun jahon tajribasidan samarali foydalanishimiz va shu bilan bir qatorda amalda to‘g‘ri qo‘llay bilishimiz lozimdir. Qisqa davr mobaynida O‘zbekistonning savdo, investitsiya, energetika, transport, kommunikatsiya, madaniy gumanitar almashinuv, turizm kabi deyarli barcha sohalarda juda jadal ishlar qilinmoqda va rivojlantirilmoqda.

[30]Сокерин, П. О. Применение облачных технологий в бухгалтерском учете / П. О. Сокерин // Научные стремления. — 2019. — №. 25. — С. 72-74.

Zamonaviy jamiyatimizda axborotni qayta ishlash texnologiyasining asosiy texnik vositasi bu-shaxsiy kompyuterdir[31]. Ko‘proq tashkilotlarda buxgalteriya hisobi ma‘lumotni qulay saqlash, hujjatlar hamda hisobotlarni yaratish, buxgalteriya ma‘lumotlarini tahlil qilish uchun mo‘ljallangan maxsus dasturiy mahsulotlar yordamida amalga oshirilib boriladi. Ular buxgalterlarga bir — biriga bog‘liq bo‘lgan buxgalteriya bo‘limlarini boshqarishga imkoniyat beradi hamda rahbar xodimlar dolzarb ma‘lumotlarga kirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishlari mumkin bo‘ladi. Buxgalteriya hisobi avtomatlashishi buxgalterlarning ishini sezilarli darajada osonlashtiradi shu bilan birga axborotni qo‘lda qayta ishlashga nisbatan quyidagi afzalliklarni ham beradi:

-	asosiy hujjatlardagi rekvizitlarni avtomatik to‘ldirish;
-	katta hajmdagi ma‘lumotlarni tezda qayta ishlash;
-	analitik ma‘lumotlarni idrok qilish uchun qulay bo‘lgan shaklda taqdim etish (diagrammalar, grafikalar, jadvallar);
-	hisobot registrlarini shakllantirish (hisob-kitob-to‘lov bayonnomalari, aylanma-balans varaqalari, kassa kitobi);
-	qog‘oz tashuvchilar sonini kamaytirish;
-	boshqaruv va bo‘ysunuvchilar, tashkilot bo‘linmalari o‘rtasida darhol ma‘lumot almashish;
-	arifmetik xatolarni istisno qilish;
-	nazorat qiluvchi davlat organlari va banklar bilan onlayn muloqot;
-	qonunchilikni o‘zgartirishga tezkor javob berish qobiliyati.[32]

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot jarayoni zamonaviy buxgalterlarning imkoniyatlarini toborakengaytirmoqda, buxgalteriya hisobi sifati va tezkorligini oshiradi, turli xil hisob-kitoblarni integratsiyalashning zamonaviy innovatsion yondashuvlarini shakllantirib boradi. Shaxsiy kompyuterlar va maxsus buxgalteriya dasturlari yordamida qog‘oz ishini avtomatlashtirilgan hisob bilan almashtirish buxgalterni muntazam ishdan ozod qilishshu bilan bir qatorda ularning ish natijalarini sifatini, tezkorligini yaxshilash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Сокерин, П. О. Применение облачных технологий в бухгалтерском учете / П. О. Сокерин // Научные стремления. — 2019. — №. 25. — С. 72-74.
2. Коржова, О. В. Реализация в бухгалтерском учете информационных технологий в сфере цифровой экономики / О. В. Коржова, Л. В. Маркова // Научное обозрение. Педагогические науки. — 2019. — № 4-4. — С. 49-52.
3. Durdona Adashboy qizi Razzaqova. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning roli va ahamiyati. www.scientificprogress.uz. 2021
4. Umirova, G. Iqtisodiyotimizni rivojlantirishda innovatsiyalarning tutgan o‘rni va ro‘li //Qo‘qon universiteti xabarnomasi. – 2022. – Т. 5. – С. 64-66.
5. Umirova, G. (2022). Mamlakatimizdagi monopoliyaga qarshi kurashishning raqobat muhitini shakllantirish. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, *1*(1), 288-290.
6. Gulmira, U. (2023). Theoretical basis of management of the financial stability of the banking system. *International Journal of Advance Scientific Research*, *3*(05), 126-130.
7. Umirova, G. (2023). Tadbirkorlikni rivojlantirishda motivatsiya omillaridan foydalanishning zaruriyati. *Qo‘qon u* qizi Umirova, G. S. (2024).

[31] Коржова, О. В. Реализация в бухгалтерском учете информационных технологийв сфере цифровой экономики / О. В. Коржова, Л. В. Маркова // Научное обозрение. Педагогические науки. — 2019. — № 4-4. — С. 49-52.

[32]Durdona Adashboy qizi Razzaqova. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobiniavtomatlashtirishning roli va ahamiyati. Volume 2 | ISSUE 8 | 2021. ISSN: 2181-1601 www.scientificprogress.uz.

8. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish. *Educational Research in Universal Sciences*, *3*(2), 115-117.U*niversiteti xabarnomasi*, *8*, 74-77.

9. Мухтаров, Б. А., & Джамалов, У. И. (2020). ПРОГНОЗИРОВАНИЕ КОЛИЧЕСТВО ШКОЛ НА 2022 ГОД ДЛЯ РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИИ. Устойчивое развитие науки и образования, (8), 6-11.